

## OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH ZARURIYATI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Katta  
o‘qituvchisi (PhD) Kambarova Shaxnozaxon Mirvoxitovna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaviy biznesning axamiyati va dolzarbligi ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga oilaviy biznesni rivojlanirish uchun belgilab berilgan asosiy vazifalar, qabul qilingan qarorlar va mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar orqali mavjud muammolarni aniqlash xamda bartaraf etish masalasi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oilaviy tadbirkorlik, biznes, innovatsiya, texnologiya, modernizatsiya, liberallashtirish, brend, marketing.

## НЕОБХОДИМОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО БИЗНЕСА

Старший преподаватель (PhD) Ташкентского  
государственного университета востоковедения  
Камбарова Шахнозахон Мирвохитовна

**Аннотация.** В данной статье показана перспективность и востребованность семейного бизнеса. В то же время, обозначен вопрос устранения существующих проблем посредством основных задач, поставленных для развития семейного бизнеса, принятых решений и мер, реализуемых в нашей стране.

**Ключевые слова.** Семейное предпринимательство, бизнес, инновация, технология, модернизация, либерализация, бренд, маркетинг.

## THE NEED FOR GOVERNMENT SUPPORT FOR FAMILY BUSINESS DEVELOPMENT

*Senior Lecturer (PhD) at the Tashkent State  
University of Oriental Studies. Kambarova  
Shahnazakhon Mirvohitovna.*

**Annotatsion.** This article shows the acumen and relevance of family business. At the same time, the issue of elimination of existing problems through the main tasks

*set for the development of family business, the decisions made and the measures implemented in our country is indicated.*

**Keywords.** Family entrepreneurship, business, innovation, technology, modernization, liberalization, brand, marketing.

### **Kirish.**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda, liberallashtirish va modernizatsiya qilishda xozirgi kunda dolzarb bo‘lib kelgan soha kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Bu sohani xar tomonlama jadallashtirish, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishda moliyaviy va modiiy jihatdan ko‘maklashish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Shu bilan birga kichik biznesni asosini tashkil qiluvchi oilaviy biznesga aloxida axamiyat berishimiz va ushbu sohani xar doim qo‘llab - quvvatlash lozim. Oilaviy biznesning ahamiyati shundaki, u iqtisodiyotning bir qator muhim yo‘nalishlarini qamrab olib, oilaviy daromadlarni oshirish bilan birga, ichki bozorni sifatli mahsulot va xizmatlar bilan ta‘minlaydi. Shu bilan birga, oilaviy biznes oilaviy aloqalarni mustahkamlash, oilaning barcha a’zolarini yagona maqsad atrofida birlashtirish va yangi avlod tadbirkorlarini tarbiyalash kabi ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini boshlashni yengillashtiruvchi qonunlar qabul qilinmoqda, moliyaviy yordam va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda, biznesni boshlash va rivojlantirish bo‘yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat va jamiyat e’tiborida bo‘lib, bu yo‘nalishda ko‘plab muhim chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ham bugungi kunda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Qaror va Farmonlari qabul qilinmoqda. Jumladan, 2021 yil 27 martdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5041-sonli Qarorida ham oilaviy tadbirkolikni rivojlantirish borasidagi dasturlar qabul qilish bo‘yicha vazifalar berilgan.<sup>2</sup>

Oilaviy biznes – bu tadbirkorlikning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u oilaning barcha a’zolarini umumiyl maqsad yo‘lida birlashtiradi. Oilaviy biznes nafaqat iqtisodiy manfaatlarga, balki oilaviy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

<sup>1</sup> N.N.Tursunov Namangan muhandislik-tehnologiya instituti. Oilaviy tadbirkorlik – taraqqiyot kafolati. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning dolzarb masalalari. konferensiya materiallari. 2022-yil 15-16-aprel

<sup>2</sup>A.I.Asrarov Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №6(109) 2023

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida axolining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-39- sonli Qarorida xam bir qancha vazifalar belgilab qo‘yilgan va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tadbirkorlik subyektlarining mahallalarda, shu jumladan tashkil etilgan mikromarkazlarda ishlab chiqarishni, xizmat ko‘rsatish sohasini va hunarmandchilikni hamda aholi bilan kooperatsiya va kasanachilikni kengaytirishga yo‘naltirilgan loyihalari uchun hokim yordamchilarining tavsiyanomasi asosida ajratiladigan kreditlar miqdori amaldagi 225 million so‘mdan 300 million so‘mgacha oshiriladi. Bunda, tashabbuskor loyihada kamida o‘ttiz foiz ulush bilan ishtirok etishi lozim.<sup>3</sup>

### **Adabiyotlar taxlili.**

Oilaviy biznesni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekistonlik olimlardan S.Salayev o‘z ilmiy tadqiqotlarida oilaviy biznes va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilayotganligi hamda aynan har bir oila budgetining samarali shakllanishi, daromadlari va xarajatlarining optimal rejalashtirilishi bo‘yicha oilalarning amaliy ko‘nikma va bilimlarini oshirish maqsadida oila budgetini shakllantirish bo‘yicha maxsus uslubiy ko‘rsatmalarini ko‘rsatib o‘tganlar<sup>4</sup>. Xorijlik olimlardan A.Smit, Dj.Keyns, Y.Shumpeter asarlarida oilaviy biznesning xususiyatlari, mohiyati va asosiy afzalliklari, kamchiliklari yoritib berilgan.<sup>5</sup>

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolani tayyorlashda me’yoriy-xuquqiy xujjatlar, mantiqiy fikrlash, tizimli taxlil, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, iqtisodchi olimlarning qiyosiy va tanqidiy taxlili, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy statistik ma’lumotlar, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

### **Taxlil va natijalar.**

Bugun respublikamizda oilaviy korxonalar soni oshmoqda. Respublikamizda tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni bo‘yicha 3-o‘rinni oilaviy korxonalar egallagan bo‘lib, ular 2021-yil 1-avgust holatiga ko‘ra jami tadbirkorlik sub’ektlarining 10,9 foiz ulushini tashkil etgan.

1-rasm

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida axolining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-39- sonli Qarorhttps://lex.uz/docs/-6374137

<sup>4</sup> S.Salayev va b. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari: o‘quv qo’llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «Tafakkur Bo‘stoni», 2014. – 288 b.

[https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/28/NamDU-ARM-2131-Tadbirkorlik\\_faoliyatini\\_rejalashtirish\\_asoslari.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/28/NamDU-ARM-2131-Tadbirkorlik_faoliyatini_rejalashtirish_asoslari.pdf).

<sup>5</sup> O.M. Pardayeva Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirib, aholi hayot darajasi va sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 4, iyul-avgust, 2019 yil.

2021 yil xolatiga oilaviy korxonalar soni.



Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, respublikamizda amalgamoshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2017 yilda 11036 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda oilaviy korxonalar soni 4 baravarga oshib 49919 tani tashkil etgan.<sup>6</sup>

2024-yil 1-yanvardan boshlab oilaviy biznesni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar 3 yilgacha muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratiladi. Kichik biznes uchun 1,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi. Xususan, 100 million so'mgacha garovsiz kreditlar 24 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oygacha ajratiladi. 150 million so'mgacha garov talabi pasaytirilgan kreditlar ochiq kredit liniyasi asosida har 12 oyda so'ndirish sharti bilan 36 oygacha beriladi.<sup>7</sup>

Oilaviy biznesni rivojlantirishda moliyaviy mustaqillik, o'z brendini yaratish, marketing strategiyasini shakllantirish va ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy bozor sharoitida raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning rivojlanishiga ko'maklashish – davlat va jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qabul qilingan dasturlar asosida banklar kesimida quyidagi kreditlar ajratiladi.


2-rasm.

### **Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida banklar kesimida ajratilgan kreditlar. (Mlrd so'm.)<sup>8</sup>**

<sup>6</sup> G.M.Shadiyeva. Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari. Science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 6, 2022

<sup>7</sup> O'zbekistonda 2024-yildan kichik biznes uchun har bir tadbirkorga 1,5 mlrd so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi <https://daryo.uz/2023/11/13/ozbekistonda-2024-yildan-kichik-biznes-uchun-15-mlrd-somgacha-imtiyozli-kreditlar-beriladiprezident-qarori>

<sup>8</sup> Stat.us ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Oilaviy biznes uchun zamonaviy bozor sharoitlarida raqobatbardoshlikni oshirish muhimdir. Buning uchun esa innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish zarur. Ammo ko‘plab oilaviy bizneslar innovatsiyalarni amalga oshirishda moliyaviy va texnologik cheklov larga duch keladi. Yangi texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi va innovatsion faoliyat uchun zarur bilim va tajribaning yetishmasligi oilaviy biznesning rivojlanishini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Innovatsiyalarni joriy etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlaridan foydalanish, masalan, innovatsion startaplar uchun ajratiladigan grantlar va subsidiyalar, texnologiyalarni modernizatsiya qilishga qaratilgan dasturlar oilaviy biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>9</sup>

### **Xulosa va takliflar.**

Oilaviy biznesda innovatsiyalarni joriy etish nafaqat mahsulot va xizmat sifatini oshirishga, balki raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali mijozlar bilan muloqotni yaxshilashga ham imkon beradi. Masalan, onlayn savdo platformalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish, mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish va marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali oilaviy biznes raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Innovatsiyalarni joriy etishning yana bir muhim jihatni bu xodimlarning malakasini oshirishdir. Oilaviy biznesda oila a’zolari va ishchilar uchun innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalar bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus o‘quv dasturlarini tashkil etish zarur. Bunday ta’lim dasturlari xodimlarga zamonaviy texnologiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha bilim berish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

<sup>9</sup> Туленов А., Ахмедов Р. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2022.

**Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati.**

1. N.N.Tursunov Namangan muhandislik-texnologiya instituti. Oilaviy tadbirkorlik – taraqqiyot kafolati. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning dolzARB masalalari. konferensiya materiallari. 2022-yil 15-16-aprel
2. A.I.Asrarov Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №6(109) 2023
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida axolining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-39-sonli Qaror <https://lex.uz/docs/-6374137>
4. S.Salayev va b. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari: o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. - T.: «Tafakkur Bo'stoni», 2014. – 288 b. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/28/NamDU-ARM-2131>
5. O.M. Pardayeva Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirib, aholi hayot darajasi va sifatini oshirishning istiqbolli yo'naliishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalı. № 4, iyul-avgust, 2019 yil.
6. G.M.Shadiyeva. Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari. Science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 6, 2022
7. O'zbekistonda 2024-yildan kichik biznes uchun har bir tadbirkorga 1,5 mlrd so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi <https://daryo.uz/2023/11/13/ozbekistonda-2024-yildan-kichik-biznes-uchun-15-mlrd-somgacha-imtiyozli-kreditlar-beriladi-prezident-qarori>
8. Туленов А., Ахмедов Р. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2022.